

## FOLKLOR VA FOLKLORIZMNING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Shamuratova Malohat Ihambekovna – assistent o‘qituvchi

[malohatshamuratova928@gmail.com](mailto:malohatshamuratova928@gmail.com)

O‘zDSMI Nukus filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası

## МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ФОЛЬКЛОРА И ФОЛЬКЛОРИЗМА В ЛИТЕРАТУРЕ УЗБЕКИСТАНА

Шамуратова Малохат Ильхамбековна – ассистент преподаватель

Нукусского филиала Узбекского государственного института социальных наук

## THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF FOLKLORE AND FOLKLORISM IN UZBEKISTAN LITERATURE

Shamuratova Malohat Ihambekovna – Assistant teacher

Nukus branch of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

**Tayanch so‘zlar:** folklorizm, badiiy asarlar, xalq ijodi, madaniy meros, estetika.

**Rezyume.** Ushbu maqolada folklor bilan folklorizm atamalarining bir biridan farqi jihatlarini asoslab berilgan, shuningdek ularning zamonaviy adabiyotshunoslikdagi ahamiyati hamda folklorizmni o‘rgangan olimlar haqida ma’lumot berilgan.

**Ключевые слова:** фольклоризм, художественные произведения, народное творчество, культурное наследие, эстетическая ценность.

**Резюме.** Данной статье разъясняются различия между терминами «фольклор» и «фольклоризм», их значение в современном литературоведении, а также приводится информация об учёных, изучавших фольклоризм.

**Key words:** folklorism, artistic works, folk creativity, cultural heritage, aesthetic value.

**Summary.** This article explains the differences between the terms folklore and folklorism, their significance in modern literary studies, and information about scholars who have studied folklorism.

**Kirish.** Folklorshunoslik bu adabiyotshunoslikning bir qismidir. Asrlar davomida ota bobolarimizning aytgan ibratli so‘zlari-yu, naql-maqollari, momolarimizning allalari-yu, lapar qo‘shiqlari va boshqa xalq og‘zaki ijodi janrlaridir. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning xalq og‘zaki ijodini o‘rganish zarur. Bugungi kunda folklorizm milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. U nafaqat og‘zaki ijod namunalari saqlash, balki zamonaviy san‘at, adabiyot va ta’limda ham faol qo‘llanilmoqda.

**USULLAR.** Mazkur ilmiy maqola tarixiy-qiyosiy, kontekstual yondashuv tahlil usullari qo‘llanildi. Maqolada folklorshunoslik hamda folklorizmning farqli jihatlarini ko‘rsatib berish va folklorizmning ilmiy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

**NATIJALAR VA MUNOZARA.** Folklorida xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo‘ladi. Alloma Hodi Zarif: Folklor asarlarining ilmiy va badiiy qiymati ularning lug‘at boyligi bilan belgilanadi degan edi. Barcha davr tilshunoslarini xalq poetik ijodini o‘rganish qiziqtirib kelgan. Mahmud Koshg‘ariy zamonidan to bugungi kunga qadar xalq og‘zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan bo‘lsa, bularning bari buyuk merosni o‘rganishga o‘zining munosib

ulushini qo‘shgan. Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Tomas taklif qilgan bo‘lib, u “xalq donolig”i degan ma‘noni anglatadi. Dastlabki vaqtlarda el adabiyoti, xalq adabiyoti, og‘zaki adabiyot, xalq og‘zaki ijodi deb yuritilib kelingan o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi Hodi Zarif ijodidan boshlab, ya‘ni 1935- yildan e‘tiboran O‘zbek folklori nomi bilan ishlatiladi. Xususan, folklor namunalari hisoblangan To‘maris, Shiroq kabi afsonalar, Alpomish, Ravshan, Kuntug‘mish kabi dostonlar, Malikai Husnobod, Uch og‘a-ini botirlar kabi ertaklar, lirik qo‘shiqlar, marosim va mehnat qo‘shiqlari hamda boshqa og‘zaki ijod namunalari o‘zbek xalqi qadriyatlarining ajralmas qismidir. Folklor barcha san‘atning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko‘pgina san‘atlar u bilan uyg‘unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o‘xshamagan o‘ziga xosligi bilan alohida ajralib turuvchi san‘at turidir deb ta’kidlagan edi folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov darhaqiqat, buni tan olmasdan ilojimiz yo‘q chunki xalqimiz madaniyatining eng dastlabki kurtaklari folklor namunalari orqali ko‘rinadi. Folklor ijod namunalari xalqning boyligi hisoblanar ekan, ularni o‘rganish ham hamma vaqt dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Folklor kishilik jamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, kundalik nutqimizga singib ketgan. Ammo uni zamonaviy

adabiyotga yanada singdirish folklorizmning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Folklorizm ham shu tariqa maydonga keldi. Folklorizm tarixi XIX asrga borib taqaladi. Jamiyatning kundalik hayotida, madaniyatida va san'atida folklorga bo'lgan qiziqish birinchi marta frantsuz folklorshunosi Pol Sebiyo (1846-1918) tomonidan ilmiy muammo sifatida belgilangan va shakllantirilgan. Shu tariqa P. Sebiyo tomonidan taklif qilingan va fanga olib kiritilgan "folklorizm" atamasi yozuvchilar, tanqidchilar, publitsistlarning folklorga qiziqishlarini tavsiflash, ularning og'zaki xalq ijodining syujetlari, motivlari va tasvirlariga murojaat qilish uchun ishlatiladigan atamaga aylandi.

Folklorizm yozma adabiyotda xalq og'zaki ijodi an'alarining ijodiy talqini sifatida namoyon bo'ladi. Folklorizmlar badiiy asarlarda ikki xil holatda mujassam bo'ladi: oddiy va murakkab folklorizmlar. Oddiy folklorizmlar - biror yozuvchi yoki shoir ijodida xalq maqol va matallari, yumuk ifodalari, og'zaki nutq uchun xos tarkibda oborotlarning qo'llanilishidan tashkil topadi. [1.346-b]

Adabiyotshunoslikda ko'proq "badiiy folklorizm" muammosiga diqqat qaratiladi. XX asr davomida "folklorizm" atamasi olimlar tomonidan bir necha bor qayta ko'rib chiqilgan va uning mazmuni nafaqat aniqlangan, balki sezilarli darajada o'zgartirilgan. Jahon adabiyotshunoslik fanida folklorizmni badiiy madaniyat hodisasi sifatida talqin qilishning o'ziga xos an'analari shakllandi. Hozirgi vaqtda folklorizmni o'rganish chegaralari sezilarli darajada kengaygan. Adabiyotshunosligimizda folklorizm badiiy asar xalqchilligini va milliyligini oshirishga va ijodkor mahoratini belgilashga xizmat qilmoqda. Folklorizm deganda u yoki bu yozuvchi tomonidan folklorlardan foydalanishning xususiy masalalariga diqqat qaratiladi. Badiiy ijodning

og'zaki xalq ijodi bilan aloqalari muammosi eng dolzarb va qiziqarli masalalardan bo'lib, folklorizm shu masalaga yechim bo'la oldi.

Xulosa qilib aytganda folklor orqali yosh avlodga milliy qadriyatlar, hayotiy saboqlar va odob-axloq me'yorlari yetkaziladi, bu esa adabiyotimizning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi. Shuningdek, folklor va zamonaviy adabiyotdagi bu bog'liqlik, adabiyotning turli yo'nalishlarida ijod qiluvchilar uchun yangiliklar yaratishga zamin yaratadi. Shuning bilan bir qatorda, folklor elementlarini zamonaviy adabiyotga singdirish uchun xizmat qiladi. Folklorizm bugungi kunda ko'pgina vazifalarni bajaradi avvalo, madaniy merosni kelajak avlodga yetkazish, xalq og'zaki ijodi bo'lgan, ertaklar, dostonlar, qo'shiqlar, maqollar va afsonalarni nomoddiy madaniy meros sifatida saqlash va targ'ib qilishga xizmat qiladi, shuningdek, xalqaro YUNESCO tashkiloti tomonidan ham folklor elementlari milliy merosning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan.

Zamonaviy yozuvchilar, shoirlar va san'atkorlar folklor motivlaridan keng foydalanib, milliy ruhni zamonaviy shaklda ifodalaydilar.

Umuman olganda, o'zbek adabiyotida folklor namunalarining uyg'unlashishi yoshlar ongida milliy o'zlikni anglash, saqlash, badiiy obrazlarni boyitish va adabiyotni keng targ'ib qilishga imkon yaratadi. Folklor xalqning tarixiy xotirasi va dunyoqarashini aks ettiradi.

Bugungi globallashuv davrida folklorizm milliy o'zlikni yo'qotmaslik, o'z madaniyatini anglash va uni boshqalarga tanitishda muhim vosita hisoblanadi. Folklor asarlari yosh avlodga axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik va insoniylik g'oyalarini singdiradi. Bugungi kunda folklorizm na'munalari maktab va oliy ta'lim muassasalarida adabiyot darslari orqali, yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sarimsoqov B. XX asr O'zbek folklorshunosligi antologiyasi "Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir" maqola - Toshkent: 2017
2. Xudoyberdiyeva H. "Ilk muhabbat" kitobi Toshkent, 1968 y
3. Turdimov SH. "O'zbek xalq qo'shiqlarida ramz" Toshkent,
4. Xudoyberdiyeva H. "Oq olmalar" kitobi Toshkent, 1973 y
5. Adabiyotshunoslikka kirish, T. Boboyev O'qituvchi,. 1995;
6. "Adabiyot nazariyasi asoslari", D. Qur'onov. - Toshkent: Akademya nashr, 2018
7. Мадаев О. Халқ оғзаки поэтик ижоди. -Т., 2010. 208 б.
8. O. Madayev Xalq og'zaki poetik ijodi -Toshkent, 2010. 208 b.
9. Отепбергенова Г. Халық фольклорлық дәстүрлерди үйрениў дәўир талабы. Kórkem óner hám mádeniyat Xabarshısı» ilimiy-metodikaliq jurnalı. 2025-жыл. №4-сан.
10. Отепбергенова Г. Халқ педагогикаси ва миллий кадриятлар. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 9-son.